
TERIMCHILAR G'AYRATI XIRMONNI YUKSALTIRMOQDA

Viloyatimizda dehqonlarmiizning yil bo'yi mashaqqatli mehnati mahsuli-paxta hosilini nes-nobud qilmasdan, o'z vaqtida, sifatli yig'ib-terib olishga kirishildi.

Toshloq tumanida ham terim otryadlari tashkil etilib, terimchilarga zarur sharoit va qulayliklar yaratilmoqda. "Zar zamin ziyo"fermer xo'jaligida g'o'zaning "Sulton" navi ekilgan bo'lib, ayni kunlarda yig'im-terim qizg'in pallaga kirgan.

- Mo'l hosilni ko'rib, quvonaman, - deydi fermer xo'jaligi rahbari O'.Usmonova. - Barcha zarur agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida sifatli bajarildi. Tabiiy va mineral o'g'itlar etarlicha berildi. Bunda texnikalarimiz butligi, ish belgilangan tartibda olib borilgani qo'l keldi. Gektaridan o'rtacha 40 tsentnerdan hosil olishni rejalashtirganmiz.

Paxta hosilini yig'ib-terib olishda fermer xo'jaligi a'zolari bilan birgalikda uyushmagan aholi ham faol ishtirok etmoqda. Sayyora Isomiddinova, Mohira Mo'minova, Gulnora Qoraboeva, Shoir Mo'minova, Hakima Karimova kabi terimchilar ilg'orlikda barchaga o'rnak bo'lmoqda. Bir kilogramm paxta uchun 410 so'mdan haq berilayotgani terim sur'atiga sur'at qo'shmoqda.

-Paxta terimi boshlanganligini eshitib, uyda o'tirolmadik, - deydi Zarkent qishlog'ilik Shoir Mo'minova. - O'z xohishimiz bilan hasharga chiqdik. Har kuni 120-140 kilogramgacha paxta terib, xirmon yuksalishiga hissa qo'shmoqdamiz. Paxta puli o'z vaqtida, naqd berilyapti. Bu oilamizga qo'shimcha daromad bo'lmoqda.

Matn va surat muallifi Sherzod QORABOEV.

2017-10-14 11:28:33